




Quyosh atrofida nechta sayyora aylanishini eslang.
Ularning nomini ayting.

1. Quyosh tizimi

Quyosh tizimi – Quyosh va uning atrofida aylanadigan sayyoralar yig'indisi. Har bir sayyora Quyosh atrofida o'ziga xos yo'lida (orbita bo'ylab) boshqalar bilan to'qnashmasdan aylanadi. Quyosh atrofida 8 ta sayyora aylanadi. Shulardan 4 tasi kichik va 4 tasi ulkan sayyoralardir.



1-topshiriq.

Quyosh tizimidagi barcha sayyoralarning nomlarini daftaringizga yozing.

2. Kichik sayyoralar

Kichik sayyoralar – Quyosh atrofida unga yaqin masofada aylanadigan sayyoralar. Barcha kichik sayyoralar zich va toshsimon bo‘lib, ularning yo‘ldoshlari juda kam.

Merkuriy – Quyoshga eng yaqin va eng kichik sayyora. Uning o‘lchamlari Oydan biroz kattaroq. U Yer kabi gazsimon qobiqqa ega emas. Merkuriy tashqaridan kuchli yorilib ketgan toshli sharga o‘xshaydi.



Venera – sayyoralar ichida eng sirli va kam o‘rganilgani. U bizning sayyoramiz bilan juda ko‘p umumiylikka ega: uning atrofida gazsimon qobiq va bulutlar mavjud. Uning tarkibidagi moddalar Yerniki bilan bir xil. Biroq Yerdan farqi shundaki, uning gazsimon qobig‘i zaharli, bulutlari zich, Quyoshga yaqin joylashganligi uchun undagi harorat juda yuqori.

Mars – Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha to‘rtinchı sayyora. Mars sayyorasini qizg‘ish chang qoplagani tufayli, u Yerdan qaraganda qizil ko‘rinadi. Mars Yerga nisbatan ancha sovuq. Olimlar unda kichik suvli muz manbalarini aniqlashgani uchun odamlar uzoq vaqt davomida Marsda hayot izlarini topishga urinishgan, ammo hanuzgacha buning isboti topilmagan.



Ushbu sayyoralarning har biri Yerga qaysi jihatdan o‘xhashligini o‘ylab ko‘ring.

3. Ulkan sayyoralar


Ulkan sayyoralar deganda 4 ta yirik sayyora – Yupiter, Saturn, Uran va Neptun tushuniladi. Bu sayyoralar Yerdan ancha katta va ularning har biri bir nechta sun'iy yo'ldoshlarga ega.



Yupiter



Saturn



Uran

Neptun

Yupiter – Quyosh tizimidagi eng katta sayyora. Bu gazli ulkan sayyora – chang va gazdan iborat katta shar. Yupiterning diqqatga sazovor qismi – Ulkan qizil dog' bo'lib, u 300 yildan ortiq vaqt davomida to'xtamagan bo'ron tufayli paydo bo'lgan.

Saturn – kattaligi bo'yicha ikkinchi ulkan sayyora. U ham Yupiter kabi gazdan iborat. Saturn – atrofida aylanadigan kichik zarralardan tashkil topgan halqalari bilan mashhur.

Uran – shunchalik sovuq sayyoraki, undagi gazlar suyuqlik va muzga aylangan. Sayyorani o'rab turgan metan gazi unga yashil-moviy rangda chiroy beradi.

Neptun – bu muzli sayyora bo'lib, olimlar uni faqat matematik hisob-kitoblar orqaligina aniqlashga erishgan. Faqatgina oradan 100 yildan ziyod vaqt o'tgach, "Voyager" fazoviy kemasi yordamida ushbu sayyorani ko'rishga imkon tug'ilgan.



2-topshiriq.


Ta'riflarga qarab, uning qaysi sayyora ekanligini toping.

4. Qanday qilib sayyoralarini ko'rish mumkin?

Yerga yaqin joylashgan ayrim sayyoralarini maxsus uskunalarsiz oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin. Ular quyosh nurini aks ettiradi va biz ularni yorqin yulduzlar sifatida ko'ramiz. Sayyoralarning boshqa yulduzlardan asosiy farqi shundaki, ular miltillamasdan, bir tekis nur sochib porlaydi.

Venera osmondagи eng yorqin yulduz kabi porlaydi. U quyosh botgandan keyin osmonda birinchi bo'lib paydo bo'ladi va tongda oxirgi bo'lib yo'qoladi. Venera Quyoshga yaqin sayyora bo'lgani tufayli kechasi uni faqat Quyosh turgan tomondangina ko'rish mumkin. Merkuriyni ham xuddi shu tarzda ko'rish imkonи mavjud.

Mars Yerga nisbatan Quyoshdan uzoqda joylashgan, shuning uchun uni Yerning istalgan joyidan bemalol ko'rish mumkin. Uni yarim tunda kuzatish ancha qulay. Ushbu sayyorani topish uchun osmonda bir tekis nur sochib porlayotgan qizg'ish yulduzni ko'rsangiz bo'ldi.



Quyosh tizimidagi qaysi sayyora sizni qiziqtiradi? U haqida so'zlab bering.



Quyosh tizimidagi sayyoralardan biri haqida ma'lumot topping va qisqa ma'ruza tayyorlang.